

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

*Choriyeva Durdona Anvarovna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi dotsenti,*  
*Maxamatova Shoxista Nuriddin qizi "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishining 4 kurs talabasi*

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarni quyidagilarda: ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal

kompetentlik, psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Quyida kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

3. Psixologik kompetentlik – ijtimoiy jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ota-onalar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

4. Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

5. Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

6. Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

7. Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

8. Kommunikativ kompetentlik – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

9. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda ijobiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

10. Texnologik kompetentlik – ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

11. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarni ijtimoiy kompetentligini layoqatlilik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma‘lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kompetentlik – individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi obyektlar va subyektlar bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma‘lum bir malakalari va tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

Bir qator tadqiqotlarda kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

Psixologik nuqtai-nazardan, A.K.Markovanning fikricha, kompetentlik – muayyan insonning xarakteristikasi, ya‘ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo‘yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir<sup>1</sup>.

N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishida kompetentlikning shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya‘ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to‘siqlarni, jismoniy va aqliy zo‘riqlashlarni yenga olishlik, o‘zini tuta

<sup>1</sup> X.Meliyev, O.Jamoldinova, K.Risqulova “Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati” 2021 y.

bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko‘nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik - texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko‘nikmalari), hissiy sifatlar (o‘z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o‘zining aniq hislari (qahr, g‘azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag‘rurlik, qo‘rqish, ko‘ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o‘z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o‘z-o‘zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o‘z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o‘z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatleri tashkil etishini ta’kidlab o‘tadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tortinchoqlik hissi ustun bo‘ladi. Bunda bola bilan ko‘proq syujetli rolli markazlarda jamoaviy tarzda faoliyat olib borishi kerak. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda bola texnika bilan emas, insonlar bilan ko‘proq muloqot qilishi lozim.

Buning uchun esa bugungi kun tarbiyachisi boshchiligida bolalar kompetensiyalarini shakllantirish orqali bolalarda hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq va me’yor qoidagilariga amal qilgan o‘zini tuta bilish mahoratini oshirib borishi kerak. Tarbiyalanuvchining o‘z ichidagi menini topa olishiga ko‘maklashishi, iste’dodini kashf etishida bugungi kun tarbiyachilarining mas’uliyati kattadir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarlarining pedagogik jamoalari bu sohada izchil ish olib borishlari lozim. Shuni inobatga olgan holda tarbiyalanuvchini ijtimoiy muhitga moslashtirish jarayonida bolalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularda ijtimoiy kompetensiya orqali madaniylilikni rivojlantirish o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammo ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. D.Ro‘ziyeva “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv qo‘llanma 2015 y.
2. N.Egamberdiyeva “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv qo‘llanma 2009 y.

3. Chorjeva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
7. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9.09.014 Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
9. X.Meliyev, O.Jamoldinova “Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati” O`quv qo`llanma 2021 y.

10. Chorjeva, D. A. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
11. Anvarovna, C. D. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATION. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 58-62.
12. Anvarovna, C. D. (2024). МАКТАБГАЧА ТА‘LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 48-53.
13. Anvarovna, C. D. (2024). ТА‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.
14. Choriyeva, D., & Ahmadova, S. (2023). Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida etaklarning ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta‘limi jurnali, 1(2-3).
15. Durдона, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARNING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
16. Durдона, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.
17. Choriyeva, D. (2023). OILA VA МАКТАБГАЧА ТА‘LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).
18. DURDONA, C., & SHAHNOZA, K. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O‘RNI. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(7), 191-196.